

Toshkent shahrida jamoat transportini rivojlantirish masalalari muhokama qilindi



Prezident Shavkat Mirziyoyev 19-yanvar kuni Toshkent shahrida jamoat transportini rivojlantirish chora-tadbirlariga bag'ishlangan taqdimot bilan tanishdi.

Qulay jamoat transporti shaharning eng muhim shartlaridan biridir. Lekin Toshkent shahrida bu dolzarb muammoga aylanib borayotgan edi. Avtobuslarning ko'pi eskirgani, markaziy shohbekatlar yopilib, yo'nalishlar o'zaro samarali bog'lanmagani oqibatida aholiga noqulaylik tug'dirayotgan edi.

Masalan, so'nggi besh yilda poytaxtimiz aholisi 300 ming nafarga ko'paygan, hududi ham kengaygan. Bundan tashqari, har kuni bir milliondan ortiq odam kelib-ketadi. Lekin jamoat transport tizimi poytaxtdagi o'zgarishlardan orqada. 350 ta avtobusning foydalanish muddati 10 yildan oshgan, 393 ta avtobus yetishmaydi. Tirbandliklar oqibatida avtobuslar orasidagi interval tig'iz paytda 30 daqiqagacha yetmoqda.

Oqibatda yo'lovchilar bu xizmatdan norozi bo'lib, shaxsiy transportdan foydalanishga o'tib ketmoqda. Toshkent shahrida bu ko'rsatkich 79 foizni, jamoat transportidan foydalanish darajasi esa bor-yo'g'i 21 foizni tashkil etmoqda.

Shavkat Mirziyoyev o'tgan yili 19-oktabrda Toshkent shahri saylovchilari bilan uchrashuvda bu masalaga alohida e'tibor qaratib, zarur choralar ko'rilishini aytgan edi.

Taqdimotda shu boradagi vazifalar muhokama qilindi.

Transport vazirligi va Toshkent shahar hokimligiga aholining jamoat transportidan foydalanish darajasini hozirgidan 2 barobar oshirish asosiy vazifa sifatida belgilandi. Bunda tizimli yondashuv va odamlar og'irini yengil qilish maqsadi ustuvor bo'lishi, barcha transport turlari - yo'nalishli, temir yo'l transporti va metro liniyalari, velosiped va piyodalar harakatiga mo'ljallangan yo'llarning uzviy bog'liqligini ta'minlash va kompleks rivojlantirish zarurligi ta'kidlandi.

Hududlardan Toshkent shahriga kelishdagi asosiy yo'llarda 10 ta zamonaviy shohbekat, yo'lovchilar juda ko'p bo'ladigan 6 ta metro bekati yonida avtoturargohlar barpo etish bo'yicha topshiriq berildi.

Joriy yilda "Qo'yliq-Qipchoq" yerusti metrosi qurilishi ham yakunlanadi. Buning natijasida yengil avtomobildan foydalanayotgan 70 ming aholi uchun jamoat transportida yurishga qulay sharoit yaratiladi.

Bundan tashqari, yo'lovchilar oqimining kelgusi 5 yillik prognozidan kelib chiqib, jamoat transporti tizimining iqtisodiy-matematik modelini yaratish, Transport instituti ilmiy salohiyatini oshirish zarurligi ta'kidlandi.

Toshkent shahrida transportlar soni yiliga 15 foiz o'sib, kuniga 800 ming avtomobil harakatlanmoqda. Yo'llar piyoda va velosipedda yurish uchun qulay emas. 500 dan ortiq katta chorraha bo'lib, aksariyatining o'tkazuvchanlik darajasi past. Bularning hamda harakatlanish madaniyati pastligi oqibatida yo'l-transport hodisalari ko'p sodir bo'lmoqda.

Davlatimiz rahbari yo'l harakatini to'g'ri tashkil etish orqali ularda o'tkazuvchanlik va qulaylikni oshirish kerakligini ta'kidladi. Bu yil 200 ta chorrahada harakatni transport oqimiga qarab boshqarish tizimi joriy etilishi, 2 ta yo'l o'tkazgich, 180 kilometr piyoda va velosiped yo'laklari qurilishi, 2 ming avtomobilga mo'ljallangan to'xtash joylari tashkil etilishi belgilandi.

Shuningdek, joriy yilda avtobus parkining 35 foizi yangilanadi. Buning uchun 410 ta avtobus va elektrobus xarid qilinib, katta sig'imli avtobuslar soni 2 barobar oshiriladi. Shuningdek, shaharda elektromobillar soni ko'payib borayotganini hisobga olib, ular uchun quvvatlash stansiyalarini tashkil etish zarurligi ta'kidlandi.

Taqdimotda Toshkent shahrida jamoat transporti va transport infratuzilmasini Germaniya va Rossiyaning ilmiy asoslangan tajribasi asosida rivojlantirish imkoniyatlari to'g'risida ma'lumot berildi.

Shuningdek, jamoat transporti korxonalarini moliyaviy sog'lomlashtirish, "Toshshahartransxizmat" korxonalarini moliyaviy auditdan o'tkazib, transformatsiya qilish masalasiga ham alohida e'tibor qaratildi.

Davlatimiz rahbari sohani byudjet va boshqa manbalardan tashqari davlat-xususiy sherikchilik asosida ham rivojlantirish zarurligini ta'kidladi.

Transport vazirligi va Toshkent shahar hokimligiga poytaxtimizda jamoat transportini rivojlantirish konsepsiyasini qayta ko'rib chiqib, keng jamoatchilik muhokamasidan o'tkazish topshirildi.

Istiqbolda barcha viloyat markazlaridagi jamoat transportini ularning aholi soni, yashash va ish joylari, rivojlanish xususiyatlaridan kelib chiqib poytaxt tajribasi va ilmiy yondashuv asosida takomillashtirilishi ta'kidlandi.

